

26-aprel kuni Adiblar xiyobonida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning 70 yilligi munosabati bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamaosi shoimning xiyobonida joylashgan haykali poyiga gulchambarlar qo'yib, uning yorqin xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Shuningdek, xiyobonda adib tavalludiga bag'ishlangan tadbir ham bo'lib o'tdi. Unda O'zDSMI rektori v.b. Eldor Shermanov, yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari G'ayrat Majid, professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirok etdi. Ko'tarinki kayfiyatda o'tgan tadbirda elimiz ardog'idagi san'atkorlar Aziz Rajabiy va Dilmurod Uzoqov, yosh ijodkorlar tomonidan Muhammad Yusuf she'rlaridan yaralgan kuy-qo'shiqlar, uning she'rlari ijro etildi.



Shoir satrlarida Nurxon qismati

Eldor SHERMONOV,
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI
REKTORI V.B.,
PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI
(PHD), PROFESSOR

O'zbekiston va YUNESKO: katta ishonch va mas'uliyat

Ma'lumki, 2023-yil 7-22 noyabr kunlari Parij shahrida bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 42-sessiyasi yakunida uning navbatdagi, 43-sessiyasining 2025-yilda Samarqand shahrida o'tkazish bo'yicha tarixiy qaror qabul qilindi. Ushbu qarorni tashkilotga a'zo 194 ta davlatning barchasi qo'llab-quvvatladi.

YUNESKO 1946-yil tashkil qilingan. Tashkilotning maqsadi a'zo mamlakatlarda ta'lim, fan, madaniyat va axborot-kommunikatsiya sohalarini rivojlantirishdan iborat. Bu tashkilot haqida Ulug' hind mutafakkiri va davlat arbobi Javoharlal Neru "BMTning aql laboratoriyasi" deb atagan. Yana YUNESKOga "Insoniyatning vijdoni" deb ham ta'rif bergan.

O'zbekiston YUNESKOga 1993-yil 26-oktabrda a'zo bo'lib kirgan. 1996-yildan beri Toshkent shahrida YUNESKO vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan davr mobaynida O'zbekiston YUNESKO bilan turli yo'nalishlarda samarali hamkorlik qilib kelmoqda.



Men har gal shoir haqida eslasam yoki uning asarlariga murojaat qilsam, she'rlarini o'qisam, darhol yodimga, O'zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi Said Ahmadning shoir haqida yozgan ushbu satrlari yodimga keladi: *"Muhammad Yusuf pokiza inson edi. U odamlarni o'ylatadigan, kuldirdigan, yig'latadigan, topgan-tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi. Muhammad hammani o'ziga do'st deb bilardi. Hech kimni begona qilmasdi. Qo'lida borini do'stlariga tarqatmaguncha, cho'ntagi bo'shab qolmaguncha ko'ngli to'lmasdi. Aslini olganda asl shoirlar uzoq yashamaydilar. Ammo, ortdan abadiy yashaydigan meros qoldirib ketadilar. U mana shunday o'lmas meros qoldirdi. Muhammad she'r muxlislarining yuragini o'rtab ketdi. Endi shoirning o'zi yo'q. Ammo Muhammad Yusuf deb atalmish she'riyat bor. Bu she'riyat aslo zavol bilmaydi"*.

QUNDUZ NISHONBOYEVA,
MADANIYATSHUNOSLIK KAFEDRASI DOTSENTI,
TARIX FANLARI NOMZODI

Haqiqatdan ham shoir she'riyatining qudratli bir kuchi ham borki, millatimiz tarixiga cheksiz hurmat bilan qarab, ehtiyotkorlik bilan uni qalamga oladi.

Birgina "Uyqudagi qiz" she'rini olaylik. Bu she'rda aql-zakovati bilan nazarga tushgan, asli marg'ilonlik, professional teatr sohasiga kirib kelgan birinchi o'zbek raqqosasi Nurxon obrazi talqin etilib, shoir satrlar orqali so'zning badiiy imkoniyatlaridan foydalanib, go'yoki Nurxon bilan suhbatlashadi, ta'sirchan voqeaviy so'zlar orqali xayolan o'quvchini o'sha davrga yetaklab olib boradi va insonda albatta Nurxondek qismati achchiq bo'lgan o'zbek ayoliga achinish, tuzumdan nafratlanish paydo bo'ladi.

Yozuvchi bu she'rini garchi "Nurxon"da berilgan ma'lumotlar asosida yaratgan bo'lsa-da,

undagi matn shunchalar zo'r mahorat bilan badiiylashtirilganki, o'quvchi dilbar bir she'rni o'qigandek huzur qiladi. She'rda Nurxon obrazi barcha murakkabligi va yorqinligi bilan namoyon bo'lgan.

Shoir "Uyqudagi qiz" she'rining baytida bir yoki ikki so'zni ikki ma'noda qo'llash san'atidan foydalangan. Chunonchi, uning quyidagi misralarida ko'ngli to'la armoni qo'yni to'la qizg'aldoq ma'nosida qo'llanilgan:

**Yotar qurib darmoni,
Mangu uxlab gul yonoq,
Ko'ngli to'la armonli,
Qo'yni to'la qizg'aldoq.**

Tarixiy manbalar asosida aytadigan bo'lsak, Nurxon qismati haqiqatdan ham achchiq kechgan. 1928-yilda u uydan qochib ketgan va o'sha paytda Samarqandda joylashgan Muhiddin Qoriyoqubov teatr truppasiga qo'shiladi. Nurxonga

Usta Olim Komilov ustozlik qilgan va u yerdagi hamkasblari orasida Tamaraxonim, Gavhar Rahimova kabi san'atimiz darg'alari ham bor edilar. Nurxon guruhga qo'shilganidan ko'p o'tmay, 1928-yil 8-martda xalqaro xotin-qizlar kunini nishonlashda boshqa raqqosa qizlar bilan birgalikda sahnaga chiqadi. Raqs truppassi o'zining tug'ilib o'sgan shahri Marg'ilonga tashrif buyurganida Nurxon oilasini ziyorat qilishga qaror qiladi.

Xolasiga o'rgangan raqslarini tushib beradi va qo'shiqlarini kuylab beradi. Nihoyat, shu kuni akasi o'z niyatini amalga oshirib, Nurxonni o'ldiradi...

Ushbu holatni shoir shunday tasvirlaydiki, hatto tasvirlash xususiyati singdirilgan ushbu she'rning birinchi misrasi ham quyidagidek talqin qilingan:





O'zbekiston va YUNESKO: katta ishonch va mas'uliyat

➡ Mustaqillik yillarida ya'ni, 1994-yilda Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi, 1996-yilda Amir Temurning 660 yillik yubileyi doirasida YUNESKOning Parijdagi bosh qarorgohida Amir Temur haftaligi, konferensiya va ko'rgazmalar tashkil etilgan. Shu bilan bir qatorda, tarixiy shaharlarimiz va buyuk allomalarimizning yubileyi nishonlandi. 2023-yil sentabrda YUNESKO Bosh qarorgohida qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1150 yilligi nishonlandi. YUNESKO xalqaro yubileylarining keyingi ikki yillik ro'yxatiga "Devoni lug'otit turk" asarining 950 yilligi hamda qoraqalpoq shoiri Ajiniyaz Qosibay o'g'lining 200 yilligi kiritildi.

Ushbu tashkilot bilan hamkorlikda "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, folklor, baxshichilik san'ati, hunarmandchilik, maqom san'ati festivallari YUNESKO shafe'ligida o'tkazib kelinmoqda.

YUNESKO bilan hamkorlikning keyingi yo'nalishi bu kadrlar tayyorlash salohiyatini oshirishga bevosita yordam ko'rsatish maqsadida mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan YUNESKO kafedralaridir. Yurtimizdagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida YUNESKOning "Dunyo dinlarini qiyoslama tadqiq etish", "Madaniyat turizmi" kabi kafedralari faoliyat olib bormoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimizning YUNESKO bilan ikki tomonlama munosabatlarida YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga shu paytgacha qadar O'zbekistondagi 5 ta obyekti kiritilgan bo'lib, bular: Xivadagi Ichan qal'a majmuasi, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Shahrisabz shahrining tarixiy markazi, Samarqand – madaniyatlar chorrahasi hamda Buyuk ipak yo'lining Zarafshon-Qoraqum koridori.

Ta'kidlash joizki, "Ipak yo'li: Zarafshon-Qoraqum koridori" (Silk Roads: Zarafshan-Karakum Corridor) 2023-yilda kiritilgan bo'lib, uning nomzodnomasi O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston tomonidan hamkorlikda taqdim etildi. Mazkur nomzodnomaga kiritilgan jami 31 ta tarixiy obida turli davrlarda bunyod etilgan bo'lib, Buyuk ipak yo'lida joylashgan. Ular Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy-tarixiy merosi durdonalari hisoblanadi. Ularning 15 tasi O'zbekiston, 9 tasi Tojikiston va 7 tasi Turkmaniston hududida joylashgan.

O'zbekiston hududida joylashgan 15 obida: Jartepa otashparastlar ibodatxonasi, Sulaymontepa, Kofirqal'a qo'rg'oni, Dabussiya qo'rg'oni, Qosim Shayx me'moriy majmuasi, Mirsaid Bahrom maqbarasi, Raboti Malik karvonsaroyi va Sardoba, Deggaron masjidi, Chashmai Ayyub maqbarasi, Vardonze qo'rg'oni, Vobkent minorasi, Bahouddin Naqshband me'moriy

majmuasi, Chor Bakr nekropoli, Varaxsha qo'rg'oni hamda Poykent qo'rg'oni.

YUNESKOning yana bir ro'yxati bu Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga o'zbek xalqi nomoddiy madaniy merosining 14 ta elementi (shundan 10 tasi 2016 yildan keyin) kiritilgan. Bular: Shashmaqom (Tojikiston bilan birgalikda), Boysun madaniy an'analar, Katta ashula, Askiya zukkolik san'ati, Palov bilan bog'liq madaniyat va an'analar, Navro'z bayramini nishonlash an'analar (mintaqa mamlakatlari bilan birgalikda), Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi: atlas va adras tayyorlashning an'anaviy texnologiyalarini saqlash, Lazgi, Miniatur san'ati, Baxshichilik, Ipakchilik va an'anaviy ipak tayyorlash san'ati, Xo'ja Nasriddin haqidagi an'anaviy hikoyalar, O'zbekiston kulolchilik san'ati, Ilyuminatsiya san'ati: naqqoshlik (Ozarbayjon, Tojikiston, Turkiya va Eron bilan birgalikda), Iftorlik va uning ijtimoiy-madaniy an'analar (Ozarbayjon, Turkiya va Eron bilan birgalikda).

YUNESKO "Jahon xotirasi" reyestriga O'zbekiston Respublikasidan Toshkent shahrida saqlanayotgan Muqaddas Usmon Quroni, Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari kiritilgan edi. 2023-yilda esa, O'zbekiston tarixiga oid yana 2 ta hujjatlar to'plami: Mavlono kulliyoti va Buxoro amirligining Qushbegi ma'muriyati arxivlari to'plami ushbu reyestriga kiritildi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning YUNESKO bilan hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev YUNESKO Bosh direktori O.Azule bilan uch marta uchrashdi. Buning natijasida 2017-2023 yillarda milliy madaniy merosimizning 14 ta noyob namunasi YUNESKOning yuqorida qayd etilgan ro'yxatlaridan joy olib, insoniyat merosi sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etildi. Buxoro shahri ijodkor shaharlar tarmog'iga kiritildi.

2022-yilda O'zbekiston tarixida ilk bor 2022-2026 yillarga mo'ljallangan YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitasi a'zoliciga saylandi. Qolaversa shu yil noyabr oyida YUNESKOning maktabgacha ta'lim va tarbiya masalalari bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Ma'lumki, 2025-yilda Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'tkaziladi. Ushbu sessiya har ikki yilda bir marta bo'lib o'tadi. O'tgan 40 yildan ortiq vaqt davomida Bosh konferensiya sessiyalari faqat Parij shahrida o'tkazib kelingan. Faqatgina 1985-yil Bolgariyaning Sofiya shahrida bo'lib o'tgan.

Albatta, YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining bosh qarorgohi sifatida Samarqand shahri tanlab olinishi bejiz emas, bunda chuqur ramziy ma'no mujassam. Zero, ushbu ko'hna va hamisha navqiron shahar azal-azaldan tarixiy uchrashuvlar, tamaddunlar muloqoti markazi bo'lib kelgan. Bu yerda turli madaniyatlar o'zaro uchrashgani hech kimga sir emas.

2024-yil 15-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda nufuzli xalqaro anjumanni yuqori saviyada va tashkiliy jihatdan yuksak darajada o'tkazish uchun puxta tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan qator vazifalar belgilab berilgani bilan ahamiyatlidir.

Qarorda tayyorgarlik bilan birga, hamkorlikni yanada rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari ham belgilab berildi. Xususan, mamlakatimizning Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha xalqaro tadqiqot markaziga a'zo bo'lishi uchun rasmiy ariza topshiriladi. O'zbekistondagi shaharlar, noyob madaniy va tabiiy meros obyektlarini tegishli YUNESKOning ijodkor shaharlar va ta'limni targ'ib etuvchi shaharlar tarmoqlariga hamda boshqa xalqaro ro'yxatlarga kiritish choralarini ko'riladi.

Samarqandda bo'lib o'tadigan anjumaning yana bir tarixiy ahamiyati shundaki, YUNESKO tashkil topganining 80 yillik yubileyi bilan hamohang tarzda o'tkaziladi. Shu asnda tuzilmaning o'tgan davr mobaynidagi faoliyati sarhisob qilinib, istiqboldagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilab olinadi. Qolaversa, YUNESKO yangi Bosh direktorining aynan Samarqand shahrida saylanishi ham bo'lajak anjumaning nufuzini yanada oshiradi. Oliy anjuman asnosida O'zbekistonning madaniy-tarixiy, ilmiy-ma'rifiy, turistik imkoniyatlari, uning dunyo tamadduniga qo'shgan olamshumul hissasi dunyo hamjamiyatiga yana bir bor namoyish etiladi.

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MADANIY ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Mamlakatimizda barcha sohalariga juda katta o'zgarishlar, xalqimizni hayratda solmoqda. Xususan, madaniyat va san'at sohasiga bo'lgan yuksak e'tibor, so'ngi yillarda juda ham kuchaydi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutimizda ham, "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasida tashabbusi bilan "Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniy islohotlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi.

Ilmi-amaliy konferensiyani oliygohimiz rektori v.b. pedagogika fanlari bo'yicha falsafa (Phd) doktori, dosent E.Shermanov ochib berdi.

Konferensiyada Madaniyat vazirligining ma'sul xodimlari, madaniyat va san'at sohasining bilimdonlari, institut professor-o'qituvchilari, doktorant, magistr hamda talabalar ishtirok etishdi. Xususan, Madaniyat vazirligining mutaxassisi Q.Amonqulov "Aholiga madaniy xizmat ko'rsatishni innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar" mavzusida, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti direktori, s.f.d. Phd, I.Dadajonova "Nomoddiy madaniy merosning mahalliy milliy ro'yhatlarini shakllantirish muammolari" mavzusida, institutimizning "Madaniyatshunoslik" kafedrasida dotsenti, t.f.n. Q.Nishonboyeva "Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyatshunoslik fanini o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusida, oliygohi-

mizning tayanach doktoranti A.Qolqanatov "Madaniyat markazlarida targeting" mavzusida, "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasida katta o'qituvchisi, iqtisod fanlari bo'yicha mustaqil izlanuvchi A.Xushvoqov "Madaniyat sohasida investitsiya loyihalarini boshqarish" mavzusida ma'ruza va nutq so'zlab, sohaga doir fikr-mulohazalar bildirilib, madaniyat va san'at sohasini bugungi kun talablari darajasida rivojlantirish, mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, xalqimizning madaniyatini, ma'naviyatini hamda dunyoqarashini oshirishda sadoqat bilan xizmat qiluvchi kadrlarni tayyorlash kabi muhim masalalar muhokama qilindi.

Ma'ruzachilarning ilmiy tadqiqot faoliyatlari yuzasidan amalga oshirgan ishlari ishtirok

SAMIYEV Baxtiyor Norbobo o'g'li
Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

etgan professor-o'qituvchilar orasida atroflicha muhokama qilinib, kerakli tavsiyalar berildi. Shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiya yakunida yangilanayotgan O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasini ilmiy tadqiqotlar asosida rivojlantirish, milliy madaniyatimizni takomillashtirish, moddiy – madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, yurtimizning jahon hamjamiyatiga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, millatlararo muomala madaniyatini shakllantirish, yoshlarni yuksak ilm-ma'rifat egalari qilib tarbiyalashda har birimiz mas'ul ekanligimiz, vatanimizning porloq kelajagi yosh olimlar faoliyatiga bog'liq ekanligi alohida ta'kidlandi.

Tarixim bor, ko'rmoq istayman




Har bir millatning o'z tarixi o'z qadriyatlari bor, bizning ham buyuk tariximiz bor. Ajdodlarim nomini eshita, zir titraydiganlar qancha? Jumladan: Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, To'maris, Jaloliddin Manguberdi va shu kabi yana boshqa buyuk shaxslar dunyoni hayratda qoldira olgan. Ming afsuslar bo'lsinki, hozir bu insonlarni butun dunyo ko'radigan darajada kino qilib ololmaymiz. Ho'sh bunga sabab nima?

Ayni damda biz texnika asrida yashab kelmoqdamiz. Zamonamizning yetuk rejissyorlari, ssenaristlari, yetuk aktyor va aktrisalari bor. Lekin ayni vaqtda suratga olinayotgan ba'zi tarixiy filmlarimiz, xalqni jumbushga keltira olmayapti. Xalqning olqishlariga sabab bo'lmayapti. Bizning tarixiy shaxslarni qo'shni davlat vakillari maromiga yetkazib film qilib ishlashmoqda. Mana shu masalalarga yechim topish maqsadida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tarixiy filmlarni ko'proq olish va tarixning buyuk g'alabasi, qudratini film orqali namoyon qilish topshirig'i berildi. Ha, to'g'ri bu qaror tarixga bo'lgan hurmat va ehtirom edi, agar bu qaror bo'lmasa, biz hanuzgacha maishiy mavzularda kino olayotgan bo'larmidik. "Qaynona kelin urushi", "Sevgi", "Ayriliq" va boshqalar...

Axir qachongacha shunday mavzularda kino olamiz? Nahotki tariximizni dunyo ko'radigan darajada film ishlay ololmasak? To'g'ri, tarixiy filmlar bor, misol uchun **"Avloniy"**, **"Qo'qon shamoli"**, **"Elparvar"**, **"Mendirman Jaloliddin"**, **"Ilhaq"** kabi filmlar. Olinishga olindi lekin negadir samarasiz. "Avloniy" filmida Avloniyni ishlarini siyosatga aralashishi, xalqni qutqarmoqchi bo'lgani, xatto yaqinlarini, kichik jiyanini yo'qotganini yaxshi ko'rsatib bergan. Ammo, biz xohlagan, biz kutgan bir so'zidan qaytmaydigan, aqlli, dono Avloniyni

ushbu filmda tabiiylik yetishmagan. Aytmoqchi bo'lganim, "Qo'qon shamoli" filmida bosh rollarni ijro etganlar ishonarsiz o'ynagan bazilari albatta. Masalan: Bobur Yo'ldoshev Amir Olimxon obrazini gavdalandirgan. Amir Olimxon o'z davrida o'ta muhim shaxs bo'lgan uni ko'rgan insonlar haybatidan qo'rqishgan. B.Yo'ldoshev esa deyarli A.Olimxonni qirralarini gavdalandira olmagan. Barchamiz yaxshi bilamiz B. Yo'ldoshev



olgan ayol na yig'laydi, na dod soladi. Ayol hech kim yo'g'ida daryo bo'yiga chiqib, shunday dod solidi: "Ishoqjon, Vohobjon, Yusufjon, bolalarimdan ayrilib qoldim ey Hudo", - deya yig'laydi. Daraxtlarning ortida esa, kelinini og'zini yumib yig'laydi, bu kadrda o'zbek ayoli, o'zbek onasi qanday ekanini, kelinlari oldida irodali bo'lishni ko'rsatib berdi. Zulfiya aya bor dardini daryoga jar solib aytardi. Uning dardlarini suv olib ketadigandek, go'yo. Tasavvur qilib ko'ring, bir emas naqd beshta farzandingizdan ayrildingiz, siz qay ahvolga tushardingiz? Uncha-muncha inson farzand dog'iga chidashi juda qiyin. Zulfiya aya esa, bunga bardosh berdi.

Film juda yaxshi ishlangan insonni ta'sirlantiradi. Bu film ijodkorlarini katta yutug'i. Ammo bu film buyuk shaxslar haqida emas, Temuriylar, Boburiylar haqida emas, aynan og'riqli nuqta ham shunda. Axir qachongacha o'sib kelayotgan kichik bolalar "men Usmonman, men Jumongman" - deya takidlab keladi. Nega boshqa davlatni tarixiy shaxslarini o'ziga qahramon deb biladi? Axir nimayam qilardi bizda Amir Temurdek, Mirzo Bobur sen buyuk shaxslarning filmini chiqmagandan keyin. Yevro'paga bir e'tibor qiling tarixiy filmlari qay darajada, misol uchun Turkiyaning tarixiy filmlarini olsak. Ular tarixini mukammal darajada ishladi: **"Elto'g'ul"**, **"Hukumdor Usmon"** "Elto'g'ul" filmini 100 fan ortiq davlat o'z tiliga tarjima qilib ko'rishadi. Film haqiqatdan ham kuchli ishlangan, Turkiyaning tarixi Usmoniylar



SARDORBek ABDUXOSHIMOV,
"KINO TANQIDI VA TAHLILI" TA'LIM
YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI

imperiya'sining boshlanishi Erto'g'ulning o'g'li Usmoniylar imperiyasiga asos solishidan to oxrigacha yoritib bergan.

Bu serialni tarixiy seriallarning otasi desak mubolag'a bo'lmaydi, yoki Osiyo davlat vakillaridan bo'lgan Janubiy Koreyaning **"Dengiz Hukmdori"**, **"Jumong"**, **"Saroy Javohiri"** kabi tarixiy filmlari hali hamon mashhur. Negaki, ularda tabiiylik bor haqiqiy rejissyor tarixchi olim, ssenariylar jamlangan. Agar yuqorida sanab o'tganlarim bizda ham jam bo'lganida edi, olayotgan tarixiy filmlarimiz mukammal darajada bo'lardi.

Aytmoqchimanki, biror tarixiy shaxs haqida kino yoki serial olmoqchi bo'lganda, soha mutahassislari yig'ilishi zarur. Rejissyor, ssenarist, tarixchi olim, kinoshunos, aktyor hamda aktrisalarni jam bo'lib, qayerda kamchilik borligini muhokama qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Aktyordagi kamchilikni rejissyor ko'radi, rejissyor ko'rmagan joyini ssenarist ko'radi, ssenarist ko'rmagan joyini rinoshunos ko'radi. Agar shunday mutaxassislar yig'ilib, Amir Temur filmini ishlashsa, mukammal darajada butun dunyoga shov-shuv bo'lishi aniq. Biz jahon ko'radigan film yaratib qo'yaylik...



ko'rmadik. Ya'ni Avloniy filmida asosan Afg'onistonda bo'lgan siyosatni ko'rsatib beradi.

Men **"Avloniy"** filmini qoralash niyatim yo'q. Avloniy deyishsa, ko'z oldimda faqat donolik abjirlik she'rlarida millatning kelajagini tasavvur qilaman. Film bizga shunday tasavvurlarni juda oz miqdorda berdi. Yuqorida aytganimgdek, film Afg'onistonda bo'lgan safar haqida hikoya qiladi, lekin Avloniy tarixda juda ko'p ishlar qilgan. Yaqin sharqda juda katta nom qozongan. Film bizga mana shu narsalarni juda kam yetkazib bergan va ko'p kadrlarda Avloniyni ojiz qoldirgan. Mana shu qirralarga ko'proq e'tibor berilganda film yuqori darajada chiqardi.

Yana bir tarixiy film **"Qo'qon shamoli"**,

mahoratli aktyor o'z ishini ustasi, lekin mazkur filimida o'z qahramonini bizga ochib bera olmagan. Umuman filmda judayam tabiiylik kam, mana shuning uchun ham film natijasiz chiqqan. Bu filmlardan yaqqol ajralib turgan film Jahongir Ahmedovning **"Ilhaq"** filmi keng muhokamalarga sabab bo'ldi.

Film ikkinchi jahon urush yillarini ko'rsatadi, 5 nafar farzandini urushga jo'natib, ularni "Ilhaq" kutgan Zulfiya ayani achchiq taqdiri haqida. O'g'illari urushda mardlar ha halok bo'lishi bu o'zbek o'g'lonlarini urushda qahramonlik ko'rsatganini ifodalaydi. Filmga bir nazar tashlaymiz, Zulfiya ayani barcha farzandlari urushga ketadi, lekin birortasi ham qaytib kelmaydi. Har biridan ketma-ket qora xat



O'zbekistonda mana shunday buyuk insonlar bo'lgan, - deya butun dunyoga jar solaylik. Kino orqali tarixiy shaxslarni ochilmagan qirralarini ochaylik, ana shunda o'zbek kinosi jar yoqasidan cho'qqiga chiqadi. So'z isboti bilan degandek, xususiy kanallar ko'paygandan buyon o'ta saviyasiz seriallar ko'paydi. Jumladan, **"Baht ovchisi"**, **"Zaynab bilan qoling begim"**, **"Alfons"**, **"Nomus"**, **"Daydi qizning daftari"** va hokazolar xalqimizni sevimli seriallariga aylanib ketdi. Sanab o'tgan hammasida bir xil mavzu **"Do'st hiyonati"**, **"Qotillik"**, **"Tovlamachilik"** shumi bizni qadriyatlarimiz? Xalqni ongi faqat shunga moslashib qolgan, bu seriallar ertaga bizga nima beradi?

Qasos oyida yonib, birovni o'ldirishnimi, yo keliniga shavqatsiz bo'lishnimi yoki do'stidan shubhalanib yurishni? Bilmadim, agar biz shu ketishda davom etsak, xalqning ham, yoshlarning ham, turmush tarzi mutlaqo salbiy tomonga o'zgarishi mumkin. Xulosa o'zingizdan...



"Bilib qo'y, ortimda qolar izim sen, jonimga malhamim, shirin so'zim sen..."

26 aprel – xalqimizning sevimli farzandi, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavallud topgan kun. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevraldagi "Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilligini o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishiga ko'ra, respublikamiz bo'ylab shoir tavallud topgan kun keng nishonlanmoqda. Shu munosabat bilan shoirning rafiqasi, Muhammad Yusuf nomidagi fond rahbari, "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibasi, shoira NAZIRA AS-SALOM bilan suhbatlashdik.

– Bugun elining erka, sevimli farzandi, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayot bo'lganida 70 yoshga to'lgan bo'lardi. Mana, bir necha kundirki, respublikamizdagi barcha maktablarda, oliygo'hlarda, ilm maskanlarida, mahallalarda, qo'yingki, yurtimizning har bir go'shasida, o'zbek xalqining har bir xonadonida shoirning 70 yillik tavalludi keng nishonlanayotir, she'rlari jarang sochayotir. Shunday ulug' ayyom kunlari qanday betizgin tuyg'ular qalbingizning nozik torlarini chertayotir?

– Bilasizmi, men har yili aprel oyi yaqinlashgan sari dunyoga qayta keladigan-day, Muhammad akani qayta uchratadiganday g'alati kayfiyatga tushaman. Mo'jiza sodir bo'ladiganday ruhimda yengillik sezaman. U kishini birinchi bor uchratganim Toshkentning Navoiy ko'chasidagi 30-uy, Mustaqillik maydonidagi doim bizni birga kutib oladigan, suhbatlarimizga guvoh bo'lgan o'rindiqlar chorlayveradi. Qalbim o'sha joylarga talpinaveradi. U yerda mahzun o'tirib, xayollar olamiga cho'mar ekanman, xotiralar meni olislarga, yoshlikning muhabbat fasliga yetaklaydi. Shoir bilan xayolan suhbat quraman, yosh, o'smir qizga aylanib, uning mehr-muhabbati, hatto nafasi taftini his qilganday bo'laman, sodda, beozor, beg'ubor qarashlari, nigohlari meni sehlraydi...

Bunday tuyg'uni faqat buyuk muhabbat egalorigina his eta olsa kerak. Har tongim u kishining xayollari bilan otadi, quyosh esa uning jonday aziz tashbehleri bilan botadi. Hayot otlig' ulug'likdagi turli voqealarga guvoh bo'lar ekanman, beixtiyor shoir satrlari labimdan uchaveradi. Negaki, shoir qalbiga g'ulu solmagan hodisotning o'zi yo'q-da... Shu bilan birga, mening shoirsiz bo'm-bo'sh bo'lib qolgan ozurda ko'nglimdagi dardlarim bir-bir to'kiladi:

...Xaslar siqqan joyga sig'may ketgan ulug' tog'im mening,
Yeti ko'kdan so'ratsamda, ortga qaytmas chog'im mening,
Nazmlari yuraklarni yoritgan chirog'im mening,
Ziyolari uvolgina bo'lib ketgan shoirginam,
Bizni suyib, hurlar bilan qolib ketgan shoirginam!

– Shoir yurtida turib ham uni sog'inardi go'yo. Vatan sog'inchi, unga nisbatan bunchalik mislsiz katta muhabbat uning kichik jussasiga qanday joylandi, qanday sig'di ekan? Balki o'zi tug'ilib o'sgan Andijonida, ona qishlog'ida yashash orzusi bo'lgandir?

– Vatan tushunchasi Muhammad akaning tasavvurida o'zi tug'ilib o'sgan Andijongina emas, O'zbekiston edi. Bu buyuk muhabbat edi! Shoirning ijodida ham, hayotida ham Vatanga bo'lgan muhabbat birlamchi edi. Oila, farzandlar, jigarlar, hatto ota-onaga bo'lgan mehri qanchalik buyuk bo'lmasin, Vatan tuyg'usi, unga bo'lgan sadoqat eng yuqori pog'onada, hatto aytish mumkinki, sarhad bilmas yuksaklikda edi. Nazarimda Oллоh uni shunday yaratgan edi, uning tuprog'ini Vatan ishq bilan qorgan, tomirlaridagi qonga ham jo etgandek edi. Chunki kitobdan o'qib-o'rganib yoki tarbiya orqali Vatanga mehr bu qadar yuksalishi mushkul. Nazarimda uning ona yeriga, eliga, xalqiga, yurtiga munosabati shu qadar ulug' edi.

Lochin netar ko'kda ko'zi o'tmasa,
Sindir qalamingni, so'zi o'tmasa.
Vatan desa, o'pkang to'lib ketmasa,
She'r yozishga balo bormi, birodar.

– Shoirning har bir she'rida mislsiz ulkan dard bor, buyuk muhabbat mujassam. Nima deb o'ylaysiz, uning qalbidagi bu qadar ulkan og'riq nima edi?

– Asl shoirning yuragi vatani, jamiyat dardi bilan og'riydi. Uning quvonchu iztiroblari xalqi,



yurtiga doir bo'ladi. Shoirning ijodiga nazar solsangiz "Qora quyosh", "Temirlar nidosi", "Ko'hna quduq" dostonlari yoki "Bosmachilar", "Cho'lpon", "Usmon Nosir", "Qodiriy bobo", "Fayzullo bobo", "Samarqand", "Vatanim" she'rlarini o'qib ko'ring. Qaysi birida dard yo'q? Shoimni shoir qilgan, bemor qilgan shu ulkan dard emasmi? Ezilgan, o'z erkiga ega bo'lmagan xalqining dardi unga hech qachon tinchlik bermagan. "Afg'on" mavzusiga oid she'rlar shunchaki yozilgan emas. Har qanday ulkan yurakni (yuragi bor bo'lsa) to'kib qo'yadigan voqealarning in'ikosi bular. Jumladan, "Marsiya" she'rini olaylik:

...Xazon bosib kun ko'rmagan g'ussalarim,
Paxtazordan chiqqan og'z'in jussalarim,
Uvolgina ketgan mo'min Mirzolarim,
Afg'on qirlarida qolgan bahodirlar.

Bu satrlarni dilbandini urushga o'z oyog'i bilan jo'natib, temir qutida qaytarib olgan har bir ota-ona ko'z yoshlari daryo bo'lib o'qiydi, yurak nolasini qo'shib takrorlaydi. Chunki u Yaratgandan so'rab, tilab-tilab olgan farzandi edi, orzu-umidlari shu jigarporasiga bog'langan edi...

Shoir afg'on urushida xuddi o'z jigaridan, farzandidan ayrilganday hijron, yo'qotish dardini butun vujudi bilan yurakdan his qiladi, og'riqlarni o'z tanasidan, qalbidan o'tkazib, bir-bir elaydi:

Farzand dog'i kuydiradi kuygan sari,
Diydalari ko'z o'ngidan ketmay nari,
Onazorin tilab olgan bolalari,
Afg'on qirlarida qolgan bahodirlar.

Ustoz Halima Xudoyberdiyevaning shoir haqida bitgan shunday e'tirofi bor: "Muhammadjon Mustaqillikning ilk ayozli kunlarida birinchi bo'lib maydonga tushdi. Va jondan sevgan xalqi mustaqil bo'lgan davrni o'zining eng baxtli davri, deb bildi. U jadidchi bobolarimizning maqsadlarini o'zining maqsadi, deb bildi. O'tmishdagi og'ir kunlar shuuriga chuqur o'rnamshdi. Iztirob chekdi.

O'sh voqealarida xalqparvar shoir Shavkat Rahmon bilan bevosita ishtirok etib, ikki qardosh xalqning himoyasiga otlanganlar. Yuqori idoralarga murojaat etganlar. Men bu voqealarga guvoh bo'lganman".

Mana, nima edi shoir qalbidagi ulkan og'riq, bitmas-tuganmas dard! U vatani, undagi sodda, xokisorgina odamlar tashvishi bilan yashadi. Uning bironta she'ri shunchaki yozilmagan, qaysi mavzuga qo'l urmasin, avvalo, uni yurakdan his qilib yozar edi. Shunday kuyunchak, beg'ubor qalb egasi edi u.

– Shoir qizlarini jon qadar yaxshi ko'rganligi ayon. Bilamizki, ba'zi otalar

to'ng'ich ikki farzandi qiz tug'lsa, noliy boshlashadi, hatto "ajrashaman"ga tushgan noshukrlar qancha! Muhammad Yusuf biron marta bo'lsa ham o'g'il farzandi bo'lishini orzu qilishini aytmaganmi?

– Yo'q! Aslo! Aksincha, men kenja qizimiz dunyoga kelganida sal o'ksiganman, chunki o'g'il kutgandim-da! Barcha onalar ham o'g'li, ham qizi bo'lishini orzu qilishi rost. Buning ustiga har bir ayol turmush o'rtog'iga o'g'il farzand hadya qilishni xohlaydi. Ammo bu ota yoki onaning xohishi bilan emas, Allohning izmi bilan bo'ladi. Muhammad aka buni yaxshi tushunardi, chamamda, shuning uchun o'g'limi, qizmi – buning farqi yo'qdek edi. Mening birozgina xafa bo'lganimni sezgandek, tug'ruqxonaga xat kirgizgan. Unda shunday satrlar bor edi: "Nozjon, menga payg'ambarlar baxtini ato etdingiz. Sizga rahmat! Otini Madina qo'ymoqchiman!" Hatto "Mana qanday ekan otalik baxti" deb boshlanadigan "Tug'ruqxonada" degan she'r ham yozgandi:

...Hamshira imlaydi: keling yaqinroq,
Ana u, o'g'limi-qizmi bilmayman...
Oynadan termulib soching silayman,
Yuzingdan o'paman dokadek oppoq.

Keyin jim ketaman ismlar izlab,
Taqdiringni o'ylab yo'qdir oromim.
Mayli o'g'ilmisan-qizmi bari bir,
Yulduzing yorug'mi mening davomim?..

Vaqt betizgin, tez o'tib boraveradi. Qizlarimiz ham ulg'ayishdi. To'ng'ichimiz Ma'sudani ko'ngli quvonchga, ko'zlari yoshga to'lib, kelinlik libosida o'zlari oq fотиha berib uzatdi. Men Andijonda yurganimda Ma'sudaning ko'zi yoriydigan bo'lib qolgan-u, bu xabarni eshitgan Muhammad aka tug'ruqxonaga kechqurun yetib borgan va tonggacha, to bola dunyoga kelgunicha tug'ruqxonada hovlisida o'tirib chiqqan. Qudalarimizning aytishicha, butun tug'ruqxonadagilar "Muhammad Yusuf kelibdi", deb, shoimni ko'rishga chiqishgan ekan. Qudalar, "chaqaloqning ismini siz qo'yib berasiz", deyishganda xursand bo'lib, o'zlari orzu qilganday Bilol deb ism qo'ygan, unga atab she'r ham bitgan:

Kechayu kunduzi senda xayolim,
Umrim o'rtasida topgan zilolim.
Otagga arzanda o'g'il bo'l, lekin
Bilib qo'y, sen asli mening Bilolim.

Shoir o'g'il nevarasini uzoq kutganini ta'riflab, unga go'yoki chinorning niholi kabi ta'rif beradi:

Bilib qo'y, ortimda qolar izim sen,
Jonimga malhamim, shirin so'zim sen.
Qoramayiz bolam, mening o'zim – sen,
Men bir chinor bo'lsam, o'zing niholim.

Ikki o'g'il, to'rt qiz nevaramiz bor. Nozima qizimizning o'g'li Muhammadislom nevaramiz hozir o'n uch yoshda, juda zehni, arab tiliga qiziqadi, yana matematikani yaxshi ko'radi, sport joni-dili. Bobosining she'rlarini sevib mutolaa qiladi. Qiz nevaralarimiz ham biri-biridan istedodli bo'lishadi, deb umid qilaman.

– Nazira opa, iste'dod nasldan-naslga o'tadimi yoki Yaratgan uni har bir insonning o'zigagina in'ometadimi? Farzandlaringizda, shoir umri davomchilarida uning qaysi fazilatlar aks etadi?

– Iste'dodning nasldan o'tishi ham bor gap, deb o'ylayman. Faqat zurriyotlarining qay biriga bu baxt nasib etishini hech kim bilmaydi. Madina qizimda adabiyotga, she'riyatga qiziqish, ijodga tashnalik borligini sezdim. Uning bu iste'dodini sezganimda dunyoda mendan baxtli odam bo'lmagan bo'lsa kerak. Vaholanki, otasi oldinroq payqagan ekanlar. Ularning ham quvonchi cheksiz edi. Qizim otasining vafotidan keyin ijod bilan jiddiroq shug'ullana boshladi. Kuygan joydan kuy chiqadi, deganlari rost ekan. Qizim taqdirning mehribon otasidan ayirishdek sinovlarni boshiga solishi, yuragini yondirayotgan sog'inch va hijron azoblarini oq qog'ozga to'kish tufayligina yenga oldi.

Har nafas keltirar Otam sasini,
Har giyoh eslatar xush nafasini.
Tunlar oromini qo'rir yulduzlar,
Muhammad Yusufning Madinasini.

Rahmat senga xalqim, ming bor tashakkur,
Sen bor-ki, quyilib kelar shukuh, sha'n.
Hali bitta durust she'r yozmay turib,
Shoirning qizi deb siylagan Vatan!..

Qizim Madina Muhammadning ijodga muhabbatini anglab, yuragim ancha yorishgandek, dardlarim yengillashgandek bo'ldi. Yaratgan, hayot menga: "Mana, o'sha ulkan muhabbat daraxtidan o'sayotgan nihollarga boq!" deyayotganday ko'nglimga dalda berdi.

Buning ustiga meni quvontirgan narsa shu bo'ldiki, uning ijodi otasidan mutlaqo farq qilardi, ya'ni taqlid emas edi. Muhammad akaning yosh ijodkorlarga nasihatlarini ko'p eshitganman va o'qiganman: "Yosh shoir o'z yo'lini topib olguncha taqlid qilishi tabiiy. Lekin uning soyasi bo'lib qolmasligi kerak".

Madinamni ko'rsam Muhammad akamni ko'rgandek bo'laman. Chunki qizim quyib qo'ygandek otasiga o'xshaydi. Shu bilan birga, qizimning fe'l-atvoridagi qat'iyat, g'urur, ayni paytda ko'ngilchanlik, kamtarlik ham otasidan o'tgan. Boshqa qizlarimda ko'proq otasining soddaligi, tavakkalchiligini ko'raman. Ammo uchalasi ham otasidek ko'ngli ham, qo'li ham ochiq.

– Muhammad Yusuf ijodida sevgi, mehr, muhabbat tuyg'usi birlamchi o'rinda turadi. Uning oilasiga mehri o'lchovlarga sig'magan. Ota-onasiga, singlisiga, jigarlariga bo'lgan munosabati, muhabbati nechog'lik edi?

– Muhammad aka hamma jigarlarini yaxshi ko'rar eri. U kishida ikkiyuzlamachilik degan narsa yo'q edi. Uning bor bo'y-basti, qarashlari, munosabati, sevgisi yoki nafrati, qo'yingki, ko'nglidan chiqqan, bo'g'zida turgan har bir so'zi she'rda bori-borday ifodalanardi. Yaqinlarining har biriga jonkuyar edi. U kishining bunchalar katta mehri qayerdan olishi meni hayratlantirardi. Jigarlarining barchasini qanday bo'lsa shundayligicha, yaxshi-yomoni, go'zal xulku-kamchiliklari bilan birga yaxshi ko'rar edi. Ota-onani sevishtirishni-ku, barcha shu kishidan o'rganishi kerak, deymen ba'zida. Ayniqsa, onasini! Onasi har nafasida yonidadek edi, go'yo! Bu she'rlarida ham ifodalanadi. Singlisiga bo'lgan munosabatini alohida aytib o'tish joiz. Kenja singlisi Muhabbatxonga alohida e'tibor qaratir, uni boshqacha yaxshi ko'rar edi. Ayrim masalalarda ota-onasidan ham oldin singlisi bilan maslahatlashar, unga mehri bo'lakcha edi. Qayinsinglim ota uyidan uzoqroqqa kelin bo'lib tushgani uchunmi yoki kichkinaligidan o'zi ko'tarib katta qilgani uchunmi – bilmadim, Muhammad aka ota



yurtiga borsa, albatta, birinchi bo'lib undan xabar olar, tinchligini, sog'-salomatligini bilib, so'ngra ota uyiga o'tardi. Hozir bizga ham bu an'ana meros bo'lib qolgan.

– Shoirning she'rlari ravon o'qiladi, xalqchil, shuning uchun ham yurakdan yurakka tez yetib boradi. Shu bois she'rlarining qadri baland, abadiylikka daxldor. Siz uchun uning umr yuldoshingiz sifatidagi o'rni muhimmi, insoniylik xislatlarimi yoki ijodi birlamchimi?

– Men Muhammad akani shoir sifatida tanimaganman. Uning insoniylik xislatlari – kamgapligi, kamtarligi, shu bilan birga, qat'iyatligi dastlab e'tiborimni tortgan.

Bilasizmi, inson o'zining insoniy fazilatlarini bilan yuragingizni zabt etsa, uni hurmat qila boshlaysiz, unga suyana boshlaysiz. YA'ni, umr yo'ldoshi sifatida ko'ra olasiz. Muhammad aka shoir bo'lmaganida, boshqa kasb egasi bo'lganida ham uni tanlagan bo'lardim. Uning xalq sevgan shoir darajasiga ko'tarilishi esa menga O'lohning mukofoti, deb bilaman.

– Umr yo'ldoshingiz bilan umrguzaronlik qilayotgan vaqtlarda, hayotligida, vaqti kelib shoir xalqning bu qadar sevimli ijodkoriga aylanishi, davlat e'tiborida bo'lishi, asarlari abadiylikka daxldor bo'lishi mumkinligini tasavvur qila olarmidingiz?

– Muhammad aka ijodi bu qadar qadrlanishi haqida o'ylamaganman, albatta. Prezidentimiz Muhammad aka ijodiga men orzu qilgandan ortiqroq e'tibor qilib, Adiblar xiyoboniga haykalini qo'ydirganlarida, ularning nomida Ijod maktabi ochtirganlarida... ochig'i, bularning hammasi tushimdagidek edi, o'ngimda shu voqealar sodir bo'layotganiga ishonmaganman. Beadad shukrkim, bu o'ngimda sodir bo'ldi.

Buni qarangki, 2019-yilda o'zimni ham "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirladilar. Bu esa, tushimga ham kirmagan izzat edi.

– Buyuk iste'dod egalariga na zamon, na vaqt, na o'lim o'z hukmini o'tkaza olmas ekan. O'lim nari borsa ayriliq alamini solar. Ammo shoirning she'rlari toabad yashayverar, sevib o'qilaverar,

ular muhabbat jomini sipqorayotganlar, otalik baxtining ta'mini tuyayotganlar, keksalik gashtini surayotganlar, yurtidan olisda – musofirlikda yurt sog'inchini his etayotgan minglab qalblarda yashayverar, yod bo'lib tillarida takror-takror, xuddi siyohi qurimagan misralar singari jaranglayverar ekan. Buni cheklashga na vaqtning, na sarhadlarning kuchi yetmas ekan. Bunga xalqimizning sevimli shoiri, asl farzandi Muhammad Yusuf ijodi yorqin misoldir. Har bir qizaloq, bolajon yoinki o'smir uning she'rlarini yod olib, Vataniga, onasiga, singlisiga muhabbatini bayon qiladi. Bunday abadiyat hammaga ham nasib etavermaydi. Shunday insonning mehriga, muhabbatiga sazovor bo'lgansiz, birga yashash baxtiga musharraf bo'lgansiz. Siz uchun bu baxtning gashti, salmog'i nechog'lik?

– Muhammad aka bilan o'n sakkiz yilgina birga yashadik, xolos. Bu menga juda ham kam fursat bo'lib tuyuladi. Ammo sevimli xalqining mehr-muhabbatini, yaxshi ko'rgan farzandlarining orzu-havaslarini, go'zal, betakror xotiralarni va faxrlanish lazzatini meros qoldirdi. Bugun Muhammad akaning muxlisari meni, farzandlarimni ko'rganda shoirni ko'rganday bo'ladi. O'zbekistonning qaysi burchagiga bormaylik, shoirning go'zal fazilatlaridan gap ochadilar, o'nlab, yuzlab she'rlarini ko'zda yosh bilan yig'lab o'qiydilar, o'z jigarlari kabi tavallud kunini nishonlaydilar. Vafotidan beri son-sanoqsiz marsiyalar bitildi, hamon xotiralar yozilmoqda. Bu birovning buyrug'i yoki zo'rma-zo'rakilik bilan emas, oddiygina insonlarning, shoir jon qadar sevgan ona xalqning yurak amri bilan bo'layotir. Bu qadar ehtirom hammaga ham nasib qilavermaydi.

Hukumatimiz tomonidan ham Muhammad Yusufchalik qadrlangan ijodkor juda kam. Shoirning ikkinchi umri zavol bilmas, boqiy umr bo'lib qoldi. Yigirma uch yildirki, uning nomi tillarda, dillarda. Bundan keyin ham unutilmajak! Bundan ortiq baxt bormi biz uchun!

“Ijodiy parvoz” gazetasi uchun jurnalist Saodat RAHIMOVA maxsus tayyorladi

Shoir satrlarida Nurxon qismati

1 **Qor yerga qo'yib bosh,
Bir qizgina uxlaydi,
Ko'zlariga to'la yosh,
Hur qizgina uxlaydi.**

Yuqoridagi misralar ko'rinishidan oson, jo'ngina tuyuladi, aslida esa, bunday yoza olish juda murakkab bo'lgan antiqa bayon uslubidir. She'r matni bir qizning erta so'ngan hayoti haqida eslatadi. Uning ko'zlaridagi yoshi esa, o'zgacha ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Ikkitagina misrada yaratilgan oshiq timsoli fe'l-atvorining ko'p qirraliligiga e'tibor beraylik. Yangicha poetik shakl – mo'jiza sodir etib, an'anaviy fikrlarga yangidan jon ato etgan, zalvor ohang orqali tasvirlagan. Shu ta'sirchanlikni teskari amaliyotda yuzaga chiqargan. Orzu-istaklariga yetishmay ketgan, ota tomonidan qo'llangan zulmning qurboniga aylangan “hur qiz” siymosini yarata olgan.

Nurxon xotirasiga bag'ishlanib bitilgan ushbu she'rda umumiylikdan ko'ra ta'sirchanlik

ustunlik qiladi. Chunki kitobxon, umuman lirik qahramondan ko'ra, uyqudagi qizning o'zini yurakka yaqinroq oladi. Shunisi diqqatga sazovorki, muayyan she'rda, yuzaki qaraganda, Nurxon holiga doir hech qanday belgi ko'rinmaydi. Agar biz unga tiyrak ko'z bilan boqib, tadqiq eta boshlasak, u she'rning kimga atalgani va uning isbotini ham manzur etishimiz mumkin. Chunonchi, qizning:

**Qora yerga qo'yib bosh,
Bir qizgina uxlaydi.
Nurxon otli qalamqosh,
Hur qizgina uxlaydi.**

Shu bilan birga, shoir she'riyatning asosiy mazmuni bo'lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go'zalligi, unga cheksiz muhabbat, hijron azobi, ayriliq alamlari va visol quvonchlari nihoyatda go'zal hamda mohirona ifoda etilgan.

1989-yilda “Uyqudagi qiz” nomli she'riy to'plami uchun shoir respublika Yoshlar tashkilotining mukofotiga sazovor bo'lgan.

Muhammad Yusuf – istiqlool kuychisi

O'zbekistonda eng ko'p va eng sevib o'qiladigan she'rlarning asosiy qismi Muhammad Yusufning qalamiga mansub. Shoirning nafaqat yurtimiz, balki boshqa davlatlarda ham ko'plab kitoblari nashr etilgan.

FOTIMA HALILOVA,

“MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH”

TA'LIM YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI

Muhammad Yusuf avvalo xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o'xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari, qo'shiqlari bilan tanildi, el mehriga sazovor bo'ldi. Muhammad Yusufning she'riyat olamiga qo'shgan hissasi juda katta. Shoir haqida Erkin Vohidov shunday yozgan: **“Muhammad Yusufni xalqimiz sevib dilida saqlaydi, Vatan kuychisi, Istiqlool kuychisi deb ardoqlaydi, o'zbek eliga ulug' mehr, sadoqat singib ketgan nazokatli samimiyatga to'la she'rlarini qadrlaydi, qo'shiq qilib aytadi. Uning she'riyatini chin ma'noda qanotli she'riyat, yurt osmonida baland parvoz qiluvchi, yuraklarga qanot berguvchi she'riyat desa bo'ladi”.**

Shoirning adabiyot rivojiga qo'shgan hissasi munosib baholangan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning farmoni bilan shoir “Do'stlik” ordeni bilan mukofotlangan, “O'zbekiston xalq shoiri”

unvoniga musharraf bo'lgan. Barcha yirik shoirlar kabi Muhammad Yusuf ham tarjima faoiylati bilan shug'ullangan. Bu ishni u ifodali bajarib, o'z tarjimalariga katta mas'uliyat bilan yondashgan. O'zi ham tarjimaga yirik shoirlarning asarlari orqali o'rgangan bo'lsa-da, uning tarjimalari o'ziga xos ijod namunasi hisoblanadi. Muhammad Yusuf uchun har bir so'z, hodisa she'riyat edi. U go'yo osmonlarda qanot qoqayotgan qush kabi juda yengil va yorqin hayot kechirgan. Shuning uchun ham uning she'riyati butun ma'naviyatiga to'la, muhabbat haqida kuylaydimi hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she'rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohang ko'rinadi. Uning she'rlarida ortiqcha tashbehlar, mubolag'alar uchramaydi. Muhammad Yusufning o'zidan she'r qanday yaraladi? – deb so'rashganlarida u shunday javob bergan ekan: “Haqiqiy she'rlar odamlar orasida”...

Xalq bo'l, elim

XAFIZA ALIBEKOVA,

“MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH”

TA'LIM YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI

**Faqat bir o'gitim: dardi bo'lmasa,
Shogirdman demasin, Muhammadga, hech!**
O'zbek she'riyat dengizining zabardast darg'alaridan biri, mehr-muhabbat kuychisi, istiqlool va hurriyat, vatanga sevgini tarannum etgan misralari bilan qalblarni larzaga keltirgan, adabiyot dunyosining yorqin yulduzi Muhammad Yusufdir. Zamondoshlarining fikricha, Muhammad Yusuf XX asr oxiri XXI asr boshlaridagi eng iste'dodli o'zbek shoirlaridan biri edi. Benihoya betakror va dilbar shoirning quyidagi misralari tuyg'ularni junbushga keltirib, ko'zlardan yosh chiqarmay qo'ymaydi:

**Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim,
Ruhini shod etay desang, xalq bo'l, elim.**

Hozirgi davr o'zbek milliy adabiyotining ko'zga ko'ringan iste'dodli shoirlaridan biri – Muhammad Yusufdir.

Muhammad Yusuf oddiy o'zbek oilasida dunyoga kelgan bo'lsada, o'qish va ishlarida katta muvaffaqiyatlarga erishadi. 1973-yili o'rta maktabni a'lo baholarga tugatib, Reshetov nomidagi Rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kiradi. Muhammad Yusufning qalamiga mansub dastlabki kitob 1985-yil nashrdan chiqqan bo'lib, “Tanish teraklar” deb nomlanadi.

Muhammad Yusuf **“Men o'z bilganimdan qolmadim”** nomli she'rda shoirlikni shunday anglaydi:

**Quvraq bo'l deyishdi,
Yolg'on ham kerak,
Jindak xushomad ham,
Quloq solmadim,
Oqni oppoq ko'rdim,
Qorani qora,
Men o'z bilganimdan qolmadim.**

Shoirnig “Mehr qolur” she'rini eslang-a: **“O'tar inson yaxshi-yomoni, mehr qolur, muhabbat qolur”.** Shoir she'riyati ham shunday. Mehringizda, qalbingizda qo'shiq bo'lib qoladi. Muhammad Yusuf noyob iste'dod egasi, mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson edi...

U o'nga yaqin she'riy to'plamlarning, o'nlab qo'shiqlarning muallifi sifatida keng kitobxonlar qalbiga kirib ulgurgan. Uning dastlabki she'rlari birinchi bor “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasida 1976-yilda chop etilgan. Shundan so'ng “Tanish teraklar” (1985), “Bulbulga bir gapim bor” (1987), “Iltijo” (1988), “Uyqudagi qiz” (1989) “Halima enam allalari” (1989), “Ishq kemasi” (1990), “Ko'nglimda bir yor” (1990), “Bevafo ko'p ekan” (1991), “Erka kiyik” (1992) kabi jozibali she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989-yilda



G'OLIB MELIBOYEV,

Muhammad Yusuf

Yozgan so'zlaridir yurakga yetib,
So'zlar yashamoqda, o'zi manguga ketib,
Vatanni beqiyos tarannum etib,
Bizning vatan kuychisi Muhammad Yusuf!

So'zga jilo bermoq o'zi boshqacha,
Tarifladi cho'lu, tog'u-toshgacha,
Muhabbatni uqtirgan qari yoshgacha,
Serjilo so'zlagan Muhammad Yusuf!

Sherlarin o'qiymiz goho dard bilan,
Gohida eshitib musiqiy zarb bilan,
Oxunjon kuylagan o'shal shart bilan,
Turkman qizga sovchi bo'lgan Muhammad Yusuf!

Eshitmagan bormi pariroy sanamlar,
So'zlasak so'z yetmas qoladi kamlar,
Qizg'aldoq ham qilar balki alamlar,
Alamli kuylagan Muhammad Yusuf!

Yozganlari eslanmas shunchaki har on,
Qatra-qatra terilgan marvarid marjon,
Hech kimga berilmas, bu bizning O'zbekiston!
O'zbekiston qalbida Muhammad Yusuf!

Behruz O'TKIRQULOV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish" ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Muhammad Yusufga o'xshagim kellar

Hayotdan zavqlanib, jo'shib, intilib,
Bulbul kuylashiga o'ynagim kellar,
She'riyatni o'zimga koshona bilib,
Muhammad Yusufga o'xshagim kellar.

Inson yashash uchun tug'ilar albat,
Kimlardir yashaydi, topmoq-chun shuhrat,
Insonlar ko'niglga aylabon hijrat,
Muhammad Yusufga o'xshagim kellar.

Mening orzularim osmondek cheksiz,
Albatta ushlagay barchasi shaksiz,
Men ham she'riyatda qoldiray deb iz,
Muhammad Yusufga o'xshagim kellar.

Onalarni yozib, onaginam deb,
She'rlarimni sevib bolaginam deb,
Lola-lolajonim, lolaginam deb,
Muhammad Yusufga o'xshagim kellar.

Ota duosini chirog'im bilib,
Ilhom-u qofiya, turog'im bilib,
Vatanni ko'zim-u qarog'im bilib,
Muhammad Yusufga o'xshagim kellar.

Xalqim lazzatlansin she'rlarim o'qib,
Xalqim olqishidan yashay she'r to'qib,
Muhammad Yusufdan menga ham yuqib,
Muhammad Yusufga o'xshagim kellar.

Dilbek ERGASHEV,
"Madaniyat va san'at
muassasalari faoliyatini tashkil
etish hamda boshqarish" ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Qorong'u tun

Bir kuni tun bo'lar, bir qorong'i tun,
Bu tunni hech qachon unutmaysan,
To'g'ri ish qilgandeksan o'zing uchun,
Qaytishni o'ylaysan qayta olmaysan.

Yuragingni ezar achchiq bir alam,
O'shanda g'ururing kelgandi ustun,
Bir narsani bilib olmoqliging shart,
Seni hech kim mendek sevmagan, hech kim.

Yuragingni yoqar o'tli iztirob,
Men esa bu cho'g'da yonib bo'lganman,
Sening orzularing bo'lganda sarob,
Men esa, bariga nuqta qo'yarman...

Elyor NAZAROV,
Sirtqi ta'lim
shakli "Madaniyat
va san'at
muassasalarini
tashkil etish
va boshqarish"
yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Ayol bo'lmasa!

Mehri qimmatroqdir, dunyodan magar,
Vafo va sadoqat xayol bo'lmasa,
Yozilmas edi she'r, birorta asar,
Agarda dunyoda ayol bo'lmasa!

Bizning baxtimiz deb o'zidan tonar,
Oy chiqmas osmonga hilol bo'lmasa,
Barcha go'zalliklar qadrsiz qolar,
Agarda dunyoda ayol bo'lmasa!

Ulardek dardimiz tushungan qaysi,
Qaniydi hislari uvol bo'lmasa,
Qolmasdi bir nafas uyimiz fayzi,
Agarda dunyoda ayol bo'lmasa!

Ba'zida qalbiga beramiz ozor,
Su'ni ham ichmaymiz, zilol bo'lmasa,
Biling-ki g'aflatga bo'lardik duchor,
Agarda dunyoda ayol bo'lmasa!

Yo'qdir ishqingizda yonib kuymagan,
San'atkor, musavvir, kulol bo'lmasa,
Hatto jannatda ham chiroy bo'lmagan,
Agarda dunyoda ayol bo'lmasa!

Ular bor, sevishga qodir yuraklar,
E'zozlang, ardoqlang, malol kelmasa,
Tan oling, hech kimmiz aziz erkaklar,
Agarda dunyoda ayol bo'lmasa!

Qadrimiz

Bizni bir o'lim kutar,
Tongi bo'lmas u kunni,
Barcha tanish-bilishlar,
Yig'ilishar shu kuni.

Faryodlardan titragay,
Bu jahon, yorug' olam,
Qadrimiz bilar shu on,
Ungacha bilishmagaylar,
na qadr, na borimiz.

Ikki yuzlilar

Aldoqchilar, aldashar bizni,
Uyalmaslar yolg'on so'zlardan,
Sevaman, deb ko'rsatar o'zni,

Yolg'onlarin sezib turamiz,
Bilmaganga olib turamiz,
Bir kun kellar, bu yolg'onlarin,
O'zlarin yuziga solarmiz.

Sabrina IBRAGIMOVA,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil
etish va boshqarish"
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich
talabasi

“San’atkor eng avvalo go’zallikni ko’rishni va his qilishni bilishi kerak”, deb ta’kidlagan edi buyuk teatr reformatori va san’at fanining faylasufi Konstantin Stanislavskiy. Ha, har bir san’atkor o’z ijodi bilan tomoshabinga rang-barang hissiyot tuyg’ularni ulashishi kerak. O’zbek ijodkorlari ichida ham, shunday o’z ishini ustasi bo’lgan san’atkorlar yetarlicha. Shunday mahorat egalaridan biri bo’lgan Nozim To’laxo’jayev o’zining ijodi orqali tomoshabinlar qalbidan joy olganligi bilan birga, O’zbek kinematografiyasi rivojiga katta hissa qo’shgan, deb ayta olamiz.

SAMANDAR KONISHOV

Aktyorlik ijodida xarakterlar xilma-xilligi



Nozim To’laxo’jayev 1951-yilda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida ya’ni O’zbekiston xalq shoiri Turob To’la oilasida tug’ilgan. San’atkorlar oilasida tug’ilganligi sabab uning yoshligidan atrofida teatr, kino, umumiy aytganda san’at ijodkorlari bo’lgan. Shu boisdan ham yoshlikdagi ijodiy muhit kelajakda qaysi sohani tanlashlariga ta’sir ko’rsatgani tabiiy. Bejizga “Olmaning tagiga olma tushadi” deyishmaydi.

To’laxo’jayev 1970-yil Moskvadagi Luna-charskiy nomidagi teatr san’ati institutining rejissura fakultetiga o’qishga kirgan. Yoshlikdan rejissorlik sohasiga qiziqib kelgan Nozim To’laxo’jayev ilk rejissorlik ishini **“Sahrodagi ko’l”** nomli multfilm bilan boshladi, shuni ham aytib o’tish lozimki bundan avval ko’p filmlarda rejissor yordamchisi bo’lib ishlab, tajriba orttirgan. Keyinchalik rejissorlik, ssenaristlik qilgan bir necha filmlari ham namoyish etilgan. Bular **“Yumshoq yomg’ir yog’adi”** (animatsion film) **“Maktub”**, **“Visol”**, **“Zarb”** va shu kabi film va multfilmlarda rejissor sifatida ish olib borgan. Lekin Nozim To’laxo’jayevning tomoshabin mehrini qozonishi, aktyorlik sohasida bo’ldi. **“O’tov”**, **“Ilova”**, **“Suiqasd”**, **“Yaratganga shukur”**, **“O’yin” filmlari**, **“Jiyda guli”** serialidagi rollarini tomoshabinlar qalbidan joy olgan, deb bemaolol ayta olamiz. Unga mashhurlik olib kelgan roli bu Ayub Shahobiddinovning **“O’tov”** filmidagi Ubaydullo obrazidir.

Nozim To’laxo’jayev bilan bo’lgan bir intervyuda, avvaliga bu filmda rol o’ynashdan bosh tortganlarini, lekin Ayub Shahobiddinov bilan o’zaro suhbatlaridan so’ng rozilik bildirganini aytib o’tgan. Bu filmni To’laxo’jayev 56 yoshida ijro etgan bo’lib, bu borada intervyuda shunday degan: **“Yoshligimdan aktyor bo’lib tanilmaganimdan xafa bo’lardim. O’ylab qarasam, yoshim ulg’aygach aktyor sifatida kashf etilganimdan xursandman. Chunki hozirgi yoshimda sevimliman”**.

Aktyorning obraz yaratishdagi mahoratini nimada ko’rishimiz mumkin? Bu borada Stanislavskiy o’zining “Aktyorning o’z ustida ishlashi” kitobida shunday yozadi: **“Aktyor rolning ichida bo’lishi kerak. Har safar o’sha rolning ichiga kirish kerak”** Ha to’g’ri aktyorning qahramoni yashayotgan muhitini, qahramoni kimligi, uning maqsadi, o’y, hayollari, intilishi va albatta dunyo qarashini anglasa va his qilolsagina rol obraz darajasiga ko’tarila oladi.

Nozim To’laxo’jayev **“O’tov”** filmida o’z qahramonini yaxshi anglay olgan, – deb ayta olamiz. U qahramonini o’ynab bermadi, qahramonida yashadi, qahramonining dardini, umid va hohishlarini, qayg’usini anglab, kechindi. Shuning uchun ham Nozim To’laxo’jayevni kechinma sa’nati aktyori deb bemaolol ayta olamiz. Misol tariqasida filmning bir epizodini yodga olsak, bosh qahramon Ubaydulloning qarshiligiga qaramay, o’g’li Javohir armiyaga ketayotganda, farzandini bu fikridan qaytarmoqchi bo’ladi, lekin Javohir padariga quloq solmay ketadi. Shunda farzandining ortidan g’azab va umid bilan qarab qolishi aktyorning ko’zidan, yuz ifodasidan farzandi undan uzoqlashayotganligi uchun qattiq azobda ekanligi biliniib turadi. Bu yuz ifodadagi g’azab Ubaydulloning necha yillar davomida jamiyatga bo’lgan nafratini namoyon etsa, ko’zlaridagi umidvorlik esa undan tobora uzoqlashayotgan yolg’iz farzandi hozir ortiga

o’giriladiyu, darhol otasining oldiga qaytib kelishini umid qilayotgandek go’yo.

Yana bir epizod Javohirdan xat keldi. Ubaydullo o’g’lini xatini o’qir ekan ko’zi namlanib, bor qayg’u va g’ubori shu tomchi ko’z yoshida sizib tushgandek tuyiladi. Ko’z qarashlar, lablarning titirog’i, chimirilgan qosh Ubaydulloning ahvolini yaqqol ko’rsatib turadi. Va nihoyat Ubaydullo intizorlik bilan kutgan kun ohir oqibat keladi, ya’ni Javohir o’z uyiga qaytadi. Ammo Javohir yana ketishga qaror qilganida, bu safar otaning yuz ifodasida g’azabdan zarracha ham qolmagan edi. Faqatgina mayuslik bor edi holos. Ota shu damda farzandining uni jamiatdan uzoqlashtirmoqchi bo’lib qilgan ishlari xatoligini tushunib yetadi nazarimda.

Nozim To’laxo’jayev o’z obrazini



mukammal o’zlashtirgan, shuning uchun ham biz filmda ziyoli bo’lishiga qaramay, cho’ponlik qilayotgan kishini, ota-bobolarining jamiyat tomonidan quloq, qatog’on qilinganidan so’ng jamiyatga nisbatan nafrat bilan o’sgan insonni, yolg’iz farzandini o’zining boshiga tushgan azob uqubatlardan saqlashning eng ma’qul yo’li uni bag’rida saqlab qolish deb bilgan va bu yo’lda qattiqqo’llikni tanlagan ota obrazini biz to’laqonli ko’ramiz.

Filmning so’nggi epizodida baxtiyor oila ko’z oldimizda gavdalanadi. Ubaydullo esa o’z maqsadiga yetganida ya’ni oilasi butun va baxtli hayot kechirayotganini ko’rib, yaratganga shukur va minnatdorchilik sifatida osmonga mamnun va baxtiyor qarab qo’yishi bilan qahramonimizning shu damda qanchalar baxtli ekanligini darhol anglaymiz. **“O’tov”** filmidagi Ubaydullo obrazini mukammal o’zlashtirgani uchun, Nozim To’laxo’jayevning bu roli tomoshabinlar qalbidan joy olgan.

Shuningdek aktyorning yana bir filmida ya’ni Yolqin To’ychiyevning **“Ilova”** filmidagi Hamid obrazini ham mukammal o’zlashtirgan va qahramoni bilan yashagan deya olamiz. Hamid doim g’azab aralash alamzadalik bilan hayot kechirayotgan, dardini hech kimga ayta olmayotgan va uning dardi hech kimga qiziq bo’lmagan, bor yo’q hohishi faqatgina baxtli bo’lish, farzand ko’rish bo’lgan insondir. Biz shunday insonni filmida ko’ramiz va u bilan birga uning dardini his qilamiz.

Bir kichik misol Hamid spirтли ichimlik ichadi, ko’p sigaret chakadi. Biz kino tugagunicha uning 21 ta epizodda sigaret chakayotganini ko’ramiz va har bir sigaret chakishidagi harakatlarining o’zida uning qanchalar

azoblanayotgani, g’azabi oshib toshayotgani, bu hayotdan to’rganini sezishimiz mumkin.

Kinoning bir epizodini yodga olsak, Hamidni to’k urgach oradan bir oy o’tdi, uni ayoli cho’miltirayotganda suv aksidan uning yuz ifodasi ko’rinadi. Hamidning ko’zlari juda mayus va namlangan, tomchi yosh suvga tushib suvga singib ketadi. Bu kadrlardan biz Hamidning qanchalar azob chekayotganini, hayot zarbalaridan qattiq ezilgan inson qiyofasini ko’rishimiz mumkin. U o’z dard va tashvishlari bilan qorishib yotgan bir damda, ukasi Hamdamning hatti harakatlari, kesatigli gaplari Hamidning jonidan to’ydiradi. Aka-uka o’rtasidagi konflikt film so’ngigacha tobora kuchayib boraveradi. Bu esa Hamidning ruhiyatiga qattiq ta’sir ko’rsatmay qolmaydi albatta.

Hamid g’orda har xil ovozlari eshitib, o’zini aqlidan ozgan deb o’ylab, Xudoga murojat qilayotgan paytdagi uning holati tomoshabinlarni ta’sirlantirishi aniq. G’ordagi ovozlari qo’shnisining hazili ekanini bilganida ham, surati kulsa ham, siyrati yig’layotgani yuz ifodasidan sezilib turardi. Bu obraz qancha qiyinchilik ko’rmasin, barchasini yengib o’tdi va film ohirida o’z maqsadiga yetib tinchlik va farovonlikka erishdi.

Yana bir film 2006-yilda rejissyor Zulfiqor Musoqov tomonidan su’ratga olingan **“Suiqasd”** kriminal dramasida Nozim To’laxo’jayev boy tadbirkor obrazini ijro etadi. Filmida aktyor salbiy qahramon sifatida gavdalanadi. Ssenariy muallifi uni ijobiy obraz bo’lmish militsiya hodimiga qarshi personaj sifatida qo’yadi. Boyning farzandi to’qlikka-sho’xlik qilib ikki yigitning umriga zomin bo’ladi. Lekin, uning ishi sudga oshirilishiga boy umuman rozi emas edi. Bu yerda uning farzandi qanchalar noqobil bo’lsa ham, baribir yaxshi ko’rishiga guvoh bo’lamiz. Ya’ni, ota mehri, otaning farzandi uchun hamma narsaga tayyor ekanini Nozim To’laxo’jayev yaratgan obraz orqali ko’rinadi. Boy ushbu filmidagi qiziqarli va yuki bor obraz hisoblanadi. Uni salbiy deyish bir qarashdagi fikrdir, lekin agar ozgina chuqurroq o’rganilsa ushbu personajning ham o’ziga yarasha dardi bor ekaniga guvoh bo’lamiz. Militsiya hodimi bilan suhbatda u hozir kichik biznes deb atalayotgan ish uchun qamali chiqqani haqida aytadi. Bundan biz uning ham dardi

ichida ekani, unga nisbatan ham yaxshigina adolatsizlik qilinganini anglab yetamiz. Film so’ngida u farzandini ham, ayolini ham yo’qotadi. Buni eshitgan boyning holini, filmidagi bir epizodning o’zidan his qilishimiz mumkin. Kadr shunday qo’yilganki, biz boyning faqatgina yelkasi va yuzining ayrim qismini ko’ramiz, lekin uning dardini shuning o’zidan ham his qila olamiz. Yelkasi bilan ichidagi dardini tomoshabinga his qildiradi olish, bu haqiqiy professionalning ishi nazarimda. Shu lahzalarda hattoki tomoshabin uni endi salbiy qahramonligini ham unutadi va unga hammad bo’ladi, achinadi. Bunda esa albatta Nozim To’laxo’jayevning o’rni beqiyos. Menimcha bu rolni aynan ushbu aktyorga ishonib topshirilgani juda to’g’ri qaror bo’lgan. Nozim To’laxo’jayev shunga yaqin obrazda **“O’yin”** badiiy filmida ham gavdalanadi. Lekin, bu umumiy o’xshashlik, rollar esa bir-biridan anchagina farq qiladi.

Uch xil kino, uch xil qahramon va albatta uch xil xarakter. Birining maqsadi yolg’izgina umidi bo’lgan farzandi bilan birga bolish bo’lsa, boshqa birining maqsadi bu hayotda uni ushlab tura oladigan umidni topishdir. So’nggi personajimizning maqsadi esa, qanday yo’l bilan bo’lmasin o’g’liga zarar yetishiga yo’l qo’yigisi kelmas edi. Ijobiy ikki obraz avvaliga o’zi hohlagan maqsadiga yeta olmaydi, qiyinchilik va azob uqubat girdobiga ravona bo’ladi, lekin o’zlarida matonat topib, barcha to’siqlarni yengib o’tishadi. Bu haqiqiy jasoratdir. Antaganis hisoblangan boy obrazi esa o’zi hayotda ko’p qiyinchilik va adolatsizliklarga duch kelgan va hayot shunday ekan degan qarorga kelgan shaxs. Pul va tajovus bilan hamma narsami hal qilib bo’ladi deb hisoblaydigan, ammo film so’ngida qisman bu o’ylar xatoligini tushunib yetadigan murakkab obraz hisoblanadi. Har bir obraz o’ziga hos va murakkab bo’lsada, Nozim To’laxo’jayev bu rollarni mukammal o’zlashtirib, o’z qahramonini anglagan va his qilgan. Shuning uchun ham ushbu filmlar muvofaqiyatga erishgan deb ayta olamiz.

Nozim To’laxo’jayev o’zining ko’z qarashlari, yuz mimikasi, chuqur sukunati bilan boshqa aktyorlardan farq qiladi. Bu ijodkorning yaratgan obrazlari kam gap bo’lishi mumkun, lekin aktyorning mahorati evaziga hech bir gapsiz obrazning nima demoqchiligini anglay olamiz. Kechinma san’atining yaqqol namoyondasi bo’lgan To’laxo’jayev tanlagan har bir rolini o’zining mahorati orqali obraz darajasiga ko’tarishni o’z oldiga maqsad qilib oladi va albatta buni uddalaydi. O’zbek kinematografiyasida kechinma san’atida rol ijro etadigan mahoratli ko’plab aktyor va aktrissalar topiladi, ammo Nozim To’laxo’jayevga o’xshagan bo’rtirma harakatsiz, gapga xasislik bilan o’z rolini mukammal namoyish eta oladigan aktyorlar juda kam. Uning ko’zlariga qarab, barchasini bilib olishingiz mumkin. Nozim To’laxo’jayev o’zining ushbu iqtidori bilan ko’plab yosh aktyor va aktrissalarga o’rnak bo’la oladigan kechinma san’ati aktyoridir. Mahorat egalari doim qadrlangan va shunday bo’lib qolaveradi. Nazarimda shuning uchun ham, To’laxo’jayevning har bir yaratgan obrazi tomoshabinlar qalbidan chuqur o’rin olgan.

USHBU MAQOLA “SAN’ATSHUNOSLIK” KAFEDRASI PROFESSORI MUHABBAT TO’LAXO’JAYEVNING ILMIY RAHBARLIGI YORDAMIDA TAYYORLANDI.

